

**MUSTAQQILLIK YILLARIDARIDA XORAZM VILOYATIDAGI
IJTIMOIY JARAYONLAR TARIXI (1991-2022-YILLAR)**

Yusupov Fozilbek Ozotovich

*Toshkent viloyati Zangiota tumani 34-maktab tarix fani o`qituvchisi
AIFU magistratura talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mustaqillik yillarida Xorazm viloyatidagi ijtimoiy jarayonlar tarixi, viloyatdagi ta'lim jarayonlari va undagi kamchiliklar, viloyatda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni amalga oshirish masalalari haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", Xalq ta'limi, ariza va shikoyat, Yil o'qituvchisi, Yil tarbiyachisi, navotor o'qituvchi, kutubxona.

Respublika xalq ta'limi vazirligining ta'lim tizimining diagnostik taxliliga ko'ra viloyat 1998-yil natijalariga ko'ra Respublikada 7-o'rinni egalladi. Bu o'tgan yilga nisbatan 1 o'rin pastdir.

Xorazm viloyati ariza va shikoyatlar bilan ishlash bo'yicha 1-o'rinni, oliy o'quv yurtlariga kirish bo'yicha, yozma ish va test natijalariga ko'ra 4-o'rinni egallagani holda chaqiriqqacha yoshlarni tayyorlashni ayrim ko'rsatkichlari, o'quvchilar sportkiadasi, o'quvchilarni darsliklar bilan ta'minlashda Respublikada keyingi o'rinlarda qoldilar.

Mazkur kamchilik va nuqsonlar joylarda ayrim xalq ta'limi bo'limlari va pedagogika jaomalarining o'z ishlariga bo'lgan mas'uliyatni susaytirib yuborilganligining natijasidir.

1998-yil natijalari taxlil qilinganda Pitnak shahar xalq ta'limi bo'limi 11, Shovot tumani 10, Xonqa tumanlari 9-o'rinda qoldilar.

O'quv-tarbiya jarayonini sifati va samaradorligini asosiy ko'rsatkichi bo'lgan fan olimpiadalarida Yangibozor, Pitnak shahar xalq ta'limi bo'limlari, o'quvchilarni oliy o'quv yurtlariga kirish samaradorligi bo'yicha Xazorasp, Yangibozor, Gurlan tumanlari, umumta'lim maktablarini o'qituvchi kadrlar bilan ta'minlanishi bo'yicha Pitnak, Xiva, Shovot tumanlari Xalq ta'limi bo'limlari yetarli ish olib bormaganliklari ma'lum bo'ldi.

1998-yil viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi hay'at yig'ilishda Yangibozor tuman Xalq ta'limi bo'limi va ta'lim muassasalarini O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni amalga oshirish bo'yicha faoliyati tahlil qilinganda jiddiy kamchilik va nuqsonlar mavjudligi aniqlandi. Ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil qila olmaganligi sababli 26-son maktab direktori, 18-

son maktab direktor o`rinbosari, 23-son maktab o`quv-tarbiya ishlari bo`yicha direktor o`rinbosarlari o`z vazifasidan ozod qilindi. Joylarda ta`limning barcha bo`g`inlariga rahbarlikni to`g`ri tashkil qilinmaganligi sababli Pitnak shahar Xalq ta`limi bo`limi 1997-yil 9-o`rindan 1998-yil 11-o`ringa, Shovot tumani 1997-yil 7-o`rindan 10-o`ringa tushib qolgan. 1998-yil ta`lim muassasalarida o`z-o`zini mablag` bilan ta`minlash, ishlab chiqarishni tashkil qilish, aholiga pullik xizmat ko`rsatish bo`yicha yetarli ish olib borilmadi.

Boshqarma hay`ati o`tgan davr mobaynida "Ta`lim to`g`risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dastur" talablarini amalda bajarish va bu sohada yo`l qo`yilgan kamchilik va nuqsonlarni bartaraf qilish maqsadida amaliy ishlarni jadallik bilan amalga oshirdi.

Viloyat Xalq ta`limi boshqarmasining ish rejasiga asosan fevral oyida Bog`ot tuman Xa`lim muassasalarida "Ta`lim to`g`risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablarini bajarilishi atroflicha o`rganildi. Tekshirish davomida tumandagi barcha umumta`lim maktablari, maktabgacha va maktabdan tashqari muassasalar, tuman Xalq ta`limi bo`limi, metodika kabineti faoliyati tahlil qilindi. Maktab va litseylarda test ishlari o`tkazildi, yozma ishlar olindi, 80 soatdan ortiq dars tahlil qilindi.

Bog`ot tuman Xalq ta`limi bo`limi ta`lim muassasalari O`zbekiston Respublikasining "Ta`lim to`g`risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"larini bajarilishi, vazirlik, hokimlik va boshqarmaning ta`lim-tarbiyani isloh qilish, uning sifat va mazmunini yaxshilash bo`yicha qabul qilingan buyruq, qarorlari va tadbirlarini bajara borib bir qator ishlarni amalga oshirgan.

Tuman xalq ta`limi bo`limi tomonidan "Ta`lim to`g`risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni hayotga tadbiriq etish, prezident I.A.Karimovning Respublika Oliy Majlisi IX sessiyasida so`zlagan nutqidan kelib chiqqan holda mazkur qonunlarni amalga oshirish chora-tadbirlari belgilangan va ijrosini ta`minlash maqsadida bo`limning 1997-yil 4-noyabr 4/1-sonli kengash qarori qabul qilingan, maxsus ishchi guruhi tuzilgan.

Tumandagi mavjud 50 ta umumta`lim maktablarida, 10 bolalar bog`chalarida, 2 ta maktabdan tashqari muassasalarida ham aniq chora-tadbirlar belgilanib, ishchi guruhlari tuzilgan, maxsus stendlar chiqarilgan.

Shuningdek, tuman Xalq ta`limi bo`limining "Tumanda xalq ta`limini rivojlantirishning 1998-2000-yillarga mo`ljallangan dasturi" ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Unda Xalq ta`limi muassasalarida ta`lim mazmunini yaxshilash, ilgor ish uslublarini, yangi informatsion va pedagogik texnologiyalarni ta`lim jarayoniga tadbiriq etish, o`quv muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari aks ettirilgan.

Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 13-maydagi "O`zbekiston respublikasida

umumiy o`rta ta`limni tashkil qilish to`g`risida"gi 203-sonli qarorini bajara borib, tumanda tashxis markazi tashkil etilib, ular malakali nutaxassis kadrlar bilan ta`minlangan.

Tumandagi 1-son "Rayhon" bolalar bog`chasi republikada yagona tajriba sinov maydonchasi qilib belgilangan. 23 ta umumta`lim maktablarida yangi o`quv darsliklarini sinab ko`rish maqsadida tajriba-sinov ishlari olib borilmoqda. Ta`lim jarayonini yangi pedagogik texnologiyalarni joriy qilish maqsadida tumandagi 18 nafar fan o`qituvchilarining ish tajribalari ommalashtirilib, umumta`lim maktablariga yetkazilgan. Shuningdek tumandagi 46 nafar novator o`qituvchilarning 150 soatdan ortiq darslari tuman o`qituvchilari tomonidan kuzatilgan.

Bugungi kunda o`quvchilar bilimni reyting asosida baholash bo`yicha tajribalar 1-o`rta maktabda (direktori E. Ro`zmetov), 4-o`rta maktabda (direktori F. Jabborov), 3-o`rta maktabda (direktori I. Qurbonbayev), 18-o`rta maktabda (direktori G. Razzaqov) olib borilmoqda. 1-o`rta maktab bazasida reyting tizimini amalga oshirish tajribasi bo`yicha tuman seminar-kengashi o`tkazilgan.

Tumandagi umumta`lim maktablari 11 ta kust metod birlashmaga birlashtirilgan, o`tgan o`quv yilida bu metod birlashma yig`ilishlari 4 marta o`tkazilib, pedagoglarga zaruriy metodik yordam ko`rsatilgan.

Tumandagi ta`lim muassasalari pedagogik kadrlar bilan yetarli ravishda ta`minlangan. Ta`lim muassasalarida ishlayotgan 2460 nafar pedagog xodimdan 1918 nafari yoki 78 foizi oliy ma`lumotga ega. Shuningdek umumta`lim maktablarida 269 nafar oliy, 600 nafar I toifali, 677 nafar II toifali, 824 nafar mutaxassis o`qituvchilar ishlab turibdi. O`tgan o`quv yilida 33 nafar yosh mutaxassis kadrlar kelib qo`shilgan.

O`tgan o`quv yil natijalari bo`yicha Bog`ot tuman Xalq ta`limi bo`limi barcha ko`rsatkichlar bo`yicha viloyatda 2-o`rinni egallashdi. Ayniksa "Yil o`qituvchisi", "Yil tarbiyachisi" Respublika ko`rik tanlovlarida yaxshi qatnashib, faxrli o`rinlarni egallashdi.

Tuman hokimining yaqindan berayotgan yordami natijasida ta`lim muassasalarini o`quv-moddiy bazasi ancha mustahkamlandi.

Hozirgi kunda 2 ta moslashtirilgan maktab H. Olimjon va K.Xorazmiy nomli maktablarda bir necha million so`mlik ta`mirlash ishlari qilinib, bu maktablar zamonaviy ko`rinishga ega bo`ldi, o`quv-moddiy bazasi mustahkamlandi.

1,3,4-o`rta maktablarda faoliyat ko`rsatayotgan kichik korxonalar ishi yaxshi tashkil qilingan.

Maktab kutubxonalari ishiga e`tibor qaratilgan. 50 ta maktab kutubxonalarida bugungi kunda 575151 nusxa kitob fondiga ega, ularda ma`naviy-ma`rifiy ishlarni o`tkazilishiga alohida e`tibor berilmoqda. Buyuk eldoshlarimiz J. Manguberdining 800 yillik, Ogaxiyning 190 yillik yubileylariga qarata stend va ko`rgazmalar tashkil qilingan.

Shu bilan bir qatorda tuman Xalq ta'limi bo'limining "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablarini ta'lim jarayoniga singdirish, shu asosda ta'lim mazmunini yaxshilash, uning sifat va samaradorligini ta'minlash borasidagi faoliyatida bir qator kamchilik va nuqsonlar mavjudligi aniqlandi.

Tuman maktablari o'quvchilaridan olingan yozma ish natijalari o'quvchilar bilimini past ekanligini, o'qituvchilar ham hali eski uslublardan foydalanib ishlayotganligini, yangi pedagogik texnologiyalar dars jarayoniga tadbiriq qilinmayotganligini ko'rsatdi.

15-maktab direktori, oliy toifali o'qituvchi Sodiq Salayev o'qiyotgan 10-B sinfda kimyo fanidan o'tkazilgan yozma ishda faqat 1 nafar o'quvchi 3 bahoga baholandi, qolgan 13 nafar o'quvchi 2 baho olib, o'zlashtirish 7 foizni tashkil kildi.

Tumanda fanlar bo'yicha 46 nafar navotor o'qituvchi bor deb ma'lumot berilgan, lekin ular qaysi yo'nalishda, qanday muammolar ustida ishlayotganliklari ma'lum emas, olib borilayotgan tajriba-sinov ishlari rasmiylashtirilmagan, metodika xonasida bu to'g'rida ma'lumot yo'q.

Tuman, viloyat, shahar va tumanlari o'rtasida bolalarni oliy o'quv yurtlariga qabul qilinishi bo'yicha 8-o'rinda, olimpiada natijalari bo'yicha esa 10-o'rinni egallab turibdi.

Tumanda 219 ta chuqurlashtirilgan sinf mavjud bo'lib, ularga 5515 nafar o'quvchi jalb qilingan. Lekin bu sinflar o'z nizomi, o'quv rejasiga ega emas, yo'naltirilgan fanlar bo'yicha o'quv rejasida soatlar 1-2 soatda maktab komponenti ixtiyoridagi soatlar hisobiga ko'paytirilgan. Tumandagi 269 nafar oliy toifali o'qituvchilarning ish samaradorligi metodik kabineti nazaridan chetda qolgan, keyingi ikki yilda ular bilan biron bir tadbir o'tkazilmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Хоразм вилояти Давлат архиви. Вилоят Халқ таълими бўлими.
2. Хоразмвилоят ҳокимлиги жорий архиви. Қонунчилик ҳужжатлари тўпламлари. (1992-2019) йиллар.
3. Хоразм вилоят ҳокимлиги жорий архиви. Халқ депутатлари Хоразм вилоят кенгаши баённомалари тўпламлари.(1992-2018) йиллар.
- 4.Халқ сўзи газетаси - 2016-2019 йил сонлари.
- 5.Хоразм хакикати газетаси - 1992-2019 йил сонлари.
- 6.www.xorstat.uz